



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXINI O'RGANISHDA – “AVESTO” MUHIM TARIXIY MANBA.

*Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li*

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy tarix kafedrası stajyor-o'qituvchisi.

*Abdujabborova Mohinur Bobosher qizi*

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Tarix fakulteti 2-bosqich 202-guruh talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrlar tarixini o'rganishda miloddan avvalgi birinchi mingyillikka oid yozma manbalar, jumladan, zardushtiylarning muqaddas “Avesto” kitobi muhim tarixiy yozma manba bo'lib xizmat qiladi. “Avesto” nafaqat O'rta Osiyo, balki unga tutash hududlar va xalqlarning qadimgi tarixi, madaniyati, dini, ma'naviy merosini aks ettiruvchi bebaho manba, balki insoniyat sivilizatsiyasi shakllanishi va jamiyat taraqqiyotining jarayonlarini o'rganishda ham bebaho tarixiy manba ekanligi hamda xalqimizning qadim tarixga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Sharq, zardushtiylik, Avesto, “Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal”, O'rta Osiyo, Eron, zand, Baqtriya, Marg'iyona, Katta Xorazm, Yasht, nmana, vis, zantu, dahyu, kavi, “Aryonam Vayjo” (“Oriy kengliklari”).

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются письменные источники, относящиеся к первому тысячелетию до нашей эры, в том числе священная книга зороастрийцев “Авеста”, которая служит важным историческим письменным источником при изучении истории народов Центральной Азии с древнейших времен. “Авеста” является не только бесценным источником, отражающим древнюю историю, культуру, религию, духовное наследие не только Средней Азии, но и сопредельных территорий и народов, а также бесценным историческим источником при изучении процессов формирования человеческой цивилизации и развития общества, а также о том, что наш народ имеет древнюю историю.

**Ключевые слова:** Древний Восток, зороастризм, Авеста, “благородная мысль, благородное слово, благородное действие”, Средняя Азия, Иран, Занд, Бактрия, Маргиана, большой Хорезм, Яшт, нмана, вис, занту, дахью, Кави, “Арионам Вайджо” (“арийские просторы”).

**Annotation:** in this article, written sources relating to the first millennium BC in the study of the history of the peoples of Central Asia of the earliest times, including the Zoroastrian sacred book “Avesto”, serve as an important historical written source. “Avesto” is not only an invaluable resource that reflects the ancient

history, culture, religion, spiritual heritage of Central Asia, but also adjacent territories and peoples, but also an invaluable historical resource in the study of the processes of the formation of human civilization and the development of society, as well as the ancient history of our people.

**Keywords:** Ancient East, Zoroastrianism, Avesto, “noble thought, noble word, noble deed”, Central Asia, Iran, zand, Bactria, Margiyona, greater Khwarezm, Yasht, nmana, vis, zantu, dahyu, kavi, “Aryonam Vayjo” (“Oriy latitudes”).

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda manbalar alohida ahamiyatga molikdir. Bular moddiy va yozma manbalardir. Tariximizning eng qadimgi davrlarini o‘rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalarga suyaniladi. Bu manbalar turli ko‘rinishlarda bo‘lib, ularga qadimgi ajdodlarimiz yashagan manzilgohlar, shahar xarobalari, mozor-qo‘rg‘onlar qoldiqlari, kundalik turmush va xo‘jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat, jangovor qurollar, turli-tuman ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa eng qadimgi yozuvlar, bitiklar, kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma‘lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi qadimgi Sharqda vujudga kelgan. Shuningdek, sivilizatsiyalar dunyoning ko‘plab mintaqalarida bo‘lganidek, O‘rta Osiyo hududida jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududida ham vujudga keldi. Buni “Avesto” nomi bilan ma‘lum bo‘lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Tarixdan ma‘lumki, zardushtiylik mil.avv. VII asrdan mil. VII asrgacha qariyb ming yil O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o‘lkalarda diniy e‘tiqod sifatida yashadi.<sup>1</sup> Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo xalqlari tarixining turli jihatlarini diniy mazmundagi matnlarsiz o‘rganish mumkin emas. “Avesto” zardushtiylarning muqaddas kitobi bo‘libgina qolmay, u O‘rta Osiyo va Eron tarixi, madaniyatini o‘ziga xos siyosiy tuzumini o‘rganish uchun katta ahamiyatga egadir. “Avesto” shuningdek, O‘rta Osiyodagi eng qadimiy qabilalar va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘rganishda qo‘l keladi.<sup>2</sup>

Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri zardushtiylik (otashparastlik – zoroastrizm) dinidir. “Avesto” ana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Unda O‘rta Osiyo hududlarida yashagan barcha turkiy xalqlar, fors-tojik, afg‘on va boshqa xalqlarning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma‘naviy

---

<sup>1</sup> R.Shamsutdinov, Sh.Karimov “Vatan tarixi” 1-kitob T.: “Sharq” 2010. 102-bet.

<sup>2</sup> T.S.Saidqulov “O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar” 1-qism, Toshkent. “O‘qituvchi” 1993, 10-bet.

madaniyatlari o‘z aksini topgan.<sup>3</sup> “Avesto” oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to‘qqiz ho‘kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar davrida 21 kitob holida yig‘ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. “Avesto” ga sharhlar ham bitilgan bo‘lib, ular “Zand” nomi mashhur.

“Avesto” nafaqat O‘rta Osiyo, balki unga tutash hududlar va xalqlarning qadimgi tarixi, madaniyati, dini, ma’naviy merosini aks ettiruvchi bebaho manba, balki insoniyat sivilizatsiyasi shakllanishi va jamiyat taraqqiyotining jarayonlarini o‘rganishda ham bebaho tarixiy manba sanaladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi: “Avesto” – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorliklaridir. Zardushtiylik e’tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. “Avesto”da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir, degan qarash mavjud. “Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz “Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi”.<sup>4</sup>

Arxeologik manbalarning dalolat berishicha O‘rta Osiyoning ba’zi vohalari (Baqtriya, Marg‘iyona, Katta Xorazm)da so‘nggi bronza va ilk temir davrlaridayoq dastlabki siyosiy birlashmalar – davlat tuzulmalari paydo bo‘lgan. Ularning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, aftidan, tashqi sub’ektiv omillar (jumladan, Old Osiyoda joylashgan Midiya, Ossuriya kabi davlatlar tomonidan solib turilgan harflar) ham ma’lum ta’sir ko‘rsatgan. “Avesto” antik davr adabiyotlari (Gerodot, Yustin, Strabon asarlari) va ilmiy adabiyotlar (S.P.Tolstov, V.Masson, M.Dandamayev asarlari) da O‘rta Osiyoda ahmoniylargacha bo‘lgan davrida quyidagi davlat uyushmalari bo‘lganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

1. Mil. avv. IX-VI asrda oid qal’alar Anov, Yoztepa (Turkmaniston), Daratepa, Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Dalvarzin (O‘zbekiston) dastlabki davlat uyushmalari markazlari bo‘lgan deb taxmin qilinadi.

2. Aryonam Vayjo – markazi Ariya va Marg‘iyonada bo‘lgan “Katta Xorazm” yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati.

<sup>3</sup> R.Shamsutdinov, Sh.Karimov “Vatan tarixi” 1-kitob T.: “Sharq” 2010. 94-bet

<sup>4</sup> I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” Toshkent. “Sharq” 1998, 10-bet.

### 3. Qadimgi Baqtriya davlati.

“Avesto” ning Yasht qismida ta’riflanishicha, ilk sinfiy tengsizlik davrida Markaziy Osiyoda jamiyat alohida oilalar (“nmana”) dan tashkil topgan. Yerga urug’ jamoasi (“vis”) egalik qilgan. Bir necha urug’lar qabila (“zantu”)ga birlashgan, qabilalar birlashib viloyat (“dahyu”)ni tashkil qilgan. Viloyatlardan boshliq (“kavi”)lar idora qilgan. “Avesto” ga ko‘ra jamiyat o‘sha davrda kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo‘lingan. Bu davrda oila tarkibida to‘la huquqqa ega bo‘lmagan a’zolar vira, vaysa va parnaytarlar ham bo‘lgan. Vira odatda “erkak” “janchi” ma’nosi bilan birga “qul” ma’nosida ham ishlatilgan.<sup>5</sup>

“Avesto”da O‘rta Osiyodagi ko‘plab jug‘rofiy nomlar tilga olinib, jumladan shunday deyiladi: “Eng yaxshi yerlar va mamlakatlarning birinchisi qilib, men Ahura-Mazda, Aryonam Vayjoni yaratdi Yaxshilarning ikkinchisi sug‘dlar Bahdi va hakoza. Hammasi bo‘lib “Avesto” da 16 ta mamlakat sanab o‘tiladi.

“Aryonam Vayjo” - “Oriy kengliklari” ma’nosini beradi. Ko‘p tadqiqotchilar uni Xorazm deb tushunsalarda, boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, I.M.Dyakonovning fikricha “oriy kengliklari” bir mamlakat yoki viloyat tushunchasidan ko‘ra kengroq ma’noda qo‘llanib, butun O‘rta Osiyo va Sharqiy Eron tekisliklarini o‘z ichiga olgan. “Oriy” atamasi odatda ko‘chmanchi qabilalar – “turlar”ga qarshi bo‘lgan xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan.<sup>6</sup>

“Avesto” va uning tarixiy ahamiyati, uni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor nafaqat Vatanimizda, balki xorij tarixchilari tomonidan ham e’tirof etilgan. “Avesto” haqida fikr bildirar ekan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bunday qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g‘oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo‘lamiz. Misol uchun, “Avesto” ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilni oladigan

<sup>5</sup> Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida O‘zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni, 2015, 20-bet.

<sup>6</sup> O‘sha manba, 21-bet.

bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'lik, nechog'lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir. "Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi"<sup>7</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" Toshkent. "Sharq" 1998.
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent. "Ma'naviyat" 2008.
3. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov "Vatan tarixi" 1-kitob T.: "Sharq" 2010.
4. T.S.Saidqulov "O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar" 1-qism, Toshkent. "O'qituvchi" 1993.
5. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrası O'zbekiston tarixi fanidan ma'ruzalar matni T.: 2015.

---

<sup>7</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent. "Ma'naviyat" 2008, 31-32-bet.